

KUNDALIKLARNING BADIY AHAMIYATI

Tolibjonova Maftuna

NAMDU 1-kurs magistranti

Tel: +998930594580

Annotatsiya

Ushbu maqolada kundalik asarlarning qanday yaratilishi va uning adabiyotdagi o'rnini haqida ma'lumotlar berilgan. Kundalik asarlarning badiiyati, o'ziga xos jihatlari asarlardan olingan ma'lumotlardan tashkil topgan.

Annotatsion

This article provides information on how everyday works are created and its place in literature. The artistic and unique aspects of everyday works are reflected in the information obtained from the works.

Kalit so'zlar: Adabiyot, kundalik, badiiy jihat, kompozitsiya, yozuvchi, hayotiy voqea.

Key words: Literature, everyday, artistic aspect, composition, writer's life story.

Абстрактный

В данной статье представлена информация о том, как создаются бытовые произведения и их место в литературе. Художественные и уникальные аспекты повседневных произведений отражены в информации, полученной из произведений.

ключевое слово: Литература, бытовой художественный аспект, композиция, история жизни писателя.

O'zbek adabiyotida yaratilayotgan har qanday adabiy turdagi asar alohida ahamiyatga ega. Asarning qurilishi, tili, obrazlar tizimining borligi, uning mukammal yaratilganini ifodalaydi. Har qanday asar ma'lum turga mansub. Biz tadqiq qilmoqchi bo'lgan asar turi kundaliklardir. Kundalik- shakl jihatdan



adabiyotshunoslikdagi avtobiografik va memuar asarni eslatadi. Uning asosiy jihati, voqealarning syujetli tarzda berilmasligi, vaqt tartibiga rioya qilinishi, faktografiklik xususiyatlari bilan baholanadi.¹

“Kundaliklar –ko’rgan-kechirganlarni kunma-kun, odatda sanasini qayd etgan holda yozib borish; adabiyotdagi shu tarzda amalga oshirilgan rioya shakli. Maishiy-shaxsiy janr sifatida ancha keng tarqalgan bo’lib, turli soha kishilari tomonidan yuritilgan kundalikni birlashtiruvchi qator umumiy xususiyatlar mavjud. Avvalo, kundalikda muallifning ko’rgan-kechirganlari, his qilganlari bilan ularning qayd etilishi orasida vaqt masofasi yo’q hisobida, ya’ni olingan taassurot sovumasdan oq qayd etiladiki, shu jihati bilan ular memuar asarlardan farqlanadi. Ikkinchinch muhim xususiyat shuki, kundalik birovlarining o’qishi uchun mo’ljallanilmaydi, ular muallifning o’zi uchun yoziladi.

Shu tufayli kundalikdagi muallif o’y-fikrlari bayoni, izhorlarida samimiyat, munosabat va baho ifodasida haqqoniylik (ya’ni muallifning uyidagi yashirmay-netmay, hech bir istiholasiz yozishi) kuzatiladi. Xuddi shu narsa ularga qariyb hujjat darajasidagi ishonarlilikni baxsh etadi. Odatda kundalikda ko’proq muallifning shaxsiy realligi, uning o’zi bilan bevosita bog’liq voqealar aks etadi, biroq shulardan kelib chiqqan holda ularda olam va odam, hayotning mohiyati, biron-bir konkret hayotiy masala yuzasidan umumiy tarzdagi mulohazalar ham ifoda etilaveradi.

Mazkur xususiyatlari tufayli yozuvchi-shoirilar yuritgan kundalik adabiyotshunoslik uchun, ayniqsa biografik yo’nalishdagi tadqiqotlar uchun, beqiyos manbaga aylanadi. Bundan tashqari, kundalikga xos xususiyatlar ayrim hollarda badiiy niyat ijrosi uchun juda qulay imkoniyatlar yaratadi. Shuning uchun adabiyotda kundalik shaklida

kiritilgan asarlar ham kundalik shakli muhim kompozitsion unsur sifatida ifoda etilgan asarlar ham ko’plab uchraydi”.²

Kundaliklar kompozitsiyasi o’ziga xos shaklni tashkil etadi. Ya’ni, muallif kundalikni yozishda erkin fikrlardan foydalanadi. U muhrlab qo’yayotgan har bir fikr o’ziga xos shakllanadi. Masalan, muallif kundaligiga she’rlar, maqollar,

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Badiiy_adabiyot.

² D.Quronov. Adabiyotshunoslik lug’ati. Toshkent:.-“Akademik nashr”.2013y.



hikmatli so'zlar bitishi mumkin. Bu holda kundalikning badiiy qiymatini oshirgan bo'ladi. Yuqorida kundalikni ta'rifladik. Fikrimizni davom ettirishdan oldin kompozitsiya termini bilan uning badiiy asardagi tanishib chiqsak.

“Badiiy asardagi shakl komponentlarini badiiy mazmunni shakllantirish va ifodalash uchun eng qulay tarzda uyushtirish kompozitsiyaning zimmasidagi vazifa sanaladi. Kompozitsiya (lot. tartibga solish, tuzib chiqish) asardagi barcha unsurlarni shunday uyushtiradiki, natijada unda bironta ham ortiqcha unurning o'zi bo'lmaydi, zero, har bir unsur asar butunligida o'zining funksiyasiga ega bo'ladi, muayyan g'oyaviy-badiiy yuk tashiydi. Avvalo, kompozitsiyaning katta qismini syujet tashkil qilishini ta'kidlash joiz. Shu bilan birga, badiiy asar faqat voqealar tizimidangina iborat emas, unda rivoya, tafsilotlar, peyzaj, portret, interer, lirik chekinish, qistirma epizod kabi syujetdan tashqari qator unsurlar ham mavjud. Yozuvchi asar qurilishini belgilaganda ularning har birini o'z o'rnida, o'z me'yorida ishlatishi, qismlarni butun bilan mustahkam aloqada bo'ladigan, bu aloqalar anglanadigan tarzda joylashtirishi muhim.

. Kundaliklar-epistolyar janrning bir turi deb hisobladik. Kundaliklarda lirik chekinish, kiritma veqea, badiiy qoliplash, epigraf, portret, peyzaj kabi qismlar mujassamdir.

Atoqli yozuvchi Asqad Muxtorning “Uyqu qochganda” tundaligi adabiyotimizda muhim ahamiyat kasb etadi. Muallif asarida 2 ta daftardan iborat. 2005-yilda nashrdan chiqqan. Tundaliklar-muallifning tungi kechinmalari, fikr-mulohazalari mahsuli. Ular yagona g'oyaviy falsafiy yo'nalishga ega emas, ammo yozuvchining bedor qalbi, uyg'oq tafakkuri, tug'yonli kechinmalari-barchasi mushtarak mo'jizalar-Olam va Odam bag'ridagi sir-sinoatlardan darak beradi, kitobxonni teran xayolga toldiradi.

Asqad Muxtor bu asari haqida quyida fikrlarni aytadi. “keying vaqtda-keksalik, xastalik sabab, judam kamuyqu bo'lib qoldim. Uyqu qochganda bosh keti yo'q, uzuq-yuluq o'y-xayol qalashib kelaverarkan. Shunda tunchiroq ostida turgan daftarga ba'zi tasodifiy fikrlarni yozib qo'yadigan bo'ldim. Daftirimni “Tundaliklar” deb atadim. Bu “janr”ning “kundalik”dan farqi shuki, unda xronologik tartibdagi voqealar bo'lmaydi. Bu gaplar, biri bog'dan biri tog'dan bo'lsa ham kimnidir fikri yo sa'y-harakatiga turtki bo'lishi mumkin. Qolaversa, ular



muallifning ruhiy holatidan darak, zero biz hammamiz ma'naviy olamga hamisha qandaydir bir tarzda ulush qo'shib yashaymiz.³

Asqad Muxtor ta'kidlanganidek xronologik tartibni birinchi o'ringa qo'yadi.

“Mutaxassislar avtobiografik asarni chegaradagi, ya'ni boshqa janrlar bilan kesishuvchi janr deb hisoblaydilar. Haqiqatdan ham kundaliklarda ham avtobiografik asardagi kabi muallifning boshdan o'tkazgan va ko'ngildan kechirganlari aks etadi. Farq shuki, kundaliklarda tasvirlanayotgan tasvirlanayotgan voqealarning yuz berish vaqti bilan ular haqida yozish vaqti orasida davriy masofa yo'q, bu esa o'z hayotini bir butunlikda ko'rishga halal beradi, ya'ni muallif bosib o'tgan hayot yo'li uning o'zi uchun estetik idrok obyektiga aylanmaydi.

Avtobiografik asar bilan avtobiografik xarakterdagi asarlarni farqlash kerak. Avvalo, shuni aytish kerakki, har qanday adabiy asarda avtobiografiklik unsurlari mavjud, chunki asar muallifning hayotiy tajribasi asosida dunyoga keladi: ijodkor hayotida yuz bergan ayrim voqealar, u guvoh bo'lgan holatlar, shular ta'sirida yuzaga kelgan o'y-kechinmalar matnga singib ketishi tabiiy. Avtobiografik xarakterdagi asarda biografik unsurlar salmoqli o'rin tutgan holda, badiiy to'qima hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. (mas., G'.G'ulomning “Shum Bola” qissasi). Boshqacha aytsak, xuddi real prototipga ega asarlardagi kabi avtobiografik xarakterdagi asar uchun muallif-prototip xolos, uning asosida boshqa bir shaxs obrazi yaratiladi”.⁴

Kundaliklar epik asarlar sirasiga kiradi. Epik asar bo'lgandan keyin epik asarlarga xos bo'lgan barcha xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Vaqt, voqeabanlik kundalikning asosiy muhim xususiyati hisoblanadi. Kundaliklarda, odatda odatda, makon va zamonda kechuvchi voqealar tasvirlanadi, muallif yoki hikoyachi-personaj tomonidan hikoya qilinadi. Bu esa epik asarlarda rivoya, tavsif, dialogning qorishiq holda kelishini taqozo qiladi, zero, ularning bari birlikda o'quvchi tasavvurida badiiy voqelikni plastik jonlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, eposda rivoya

³ <https://kh-davron.uz>.

⁴ O'sha manba. Toshkent: -“Akademik nashr”.2013y.



an'anaviy ravishda yetakchi o'rinni egallaydi, uning vositasida asarga dialog hamda tafsilotlar (peyzaj, portret, narsa-buyumlar va h.) olib kiriladi.

Rivoya bu unsurlarning barini yaxlit butunlikka birlashtiradi. Epik turning takomili jarayonida undagi rivoyaning salmog'i kamayib borishi kuzatiladi. Masalan, xalq og'zaki ijodidagi ertaklar, hikoyat va rivoyatlarda rivoyaning salmog'i katta bo'lgani holda, dialogning salmog'i unchalik katta emas, tafsilotlar esa badiiy voqelikni to'laqonli tasvirlashga ko'pincha yetarli bo'lmaydi. Epik asarda voqea-hodisalarni hikoya qilib berayotgan shaxs roviy yoki hikoyachi deb yuritiladi. Yuqorida aytganimizdek, epik asarda rivoya ko'pincha muallif tilidan, ba'zan esa personajlardan biri tilidan olib boriladi. Masalan, G'afur G'ulomning "Shum bola", "Yodgor", X.To'xtaboevning "Sariq devni minib", E.A'zamovning "Otoyining tug'ilgan yili" kabi qissalarida rivoya personaj tilidan olib boriladi. Shuningdek, rivoya asosan muallif tilidan olib borilgan asarlarda ba'zan epizodik ravishda roviy-personajning paydo bo'lishi ham kuzatiladi.

Masalan, "O'tgan kunlar"da rivoya muallif tilidan olib boriladi, romanga kiritilgan "Usta Olim hikoyasi"da esa rivoya personaj tilidan olib boriladi. Roviyning o'zgarishi, tabiiyki, muayyan badiiy-estetik maqsadlarga xizmat qiladi. Buni yuqorida eslatganimiz "O'tgan kunlar"da roviyning o'zgarishini yuzakigina mushohada qilinsayoq ko'rish mumkin bo'ladi.

Hikoyaning usta Olim tilidan berilgani, avvalo, tabiiylikni ta'minlaydi: o'z xonadoniga kutilmagan mehmon sifatida kirib kelgan va bir ko'rishdayoq ko'ngliga o'tirishgan Otabekning kayfiyatini ko'tarish, nima bilandir mashg'ul qilish istagi usta Olimni o'zining kechmishi haqida hikoya qilishga, shu bahona ko'nglini bo'shatishga undaydi. Xuddi shunday holatning hayotda yuz berishi mumkinligi tabiiy, albatta. Ikkinchidan, usta Olim hikoyasining kiritilishi bu ikkisining birbirlari bilan samimiy do'st bo'lib qolishlarini, Otabekning keyingi Marg'ilon kelishlarida ham shu xonadonda qo'nib yurishi, nihoyat, chor qo'shinlariga qarshi jangda ikkisining bir safda bo'lishini asoslaydi.

Adabiy tanqidchilikning bahosiga ko'ra, Odil Yoqubovning "Ko'hna dunyo" romanining markazida Ibn Sino hamda Beruniy taqdirlari, ular yashagan davr turadi. Muallifning xulosalari va umumlashmalari keng, shuning uchun tarixiy materialga



ajib aktual ma'no bag'ishlaydi. Zamonlar osha qilingan sayohat teran falsafiy umumlasmalar chiqarishga imkon beradi.

Romanda tasvirlangan barcha voqealar hujjatlar bilan cheklab qo'yilmagan. Odil Yoqubov tarixni xuddi ko'rib turadi, tarix bilan bahslashadi, zamondoshlarga uzoq o'tmishdoshlarining tajribalaridan guvohlik berayotganday bo'ladi. U tarixga bugungi davr nuqtayi nazaridan qaraydi. Bu so'zlarda "Ko'hna dunyo" romanining tub mohiyati ochib berilgan.

Darhaqiqat, bu roman, avvalo, ulug' allomalar Ibn Sino va Beruniy taqdiri, ular yashagan davr haqida bahs etadi. Ammo u bizdagi mavjud tarixiy-biografik romanlardan, jumladan, «Navoiy», «Yulduzli tunlar» poetikasidan farq qiladi. Xuddi avvalgi tarixiy romani „Ulug'bek xazinasi"da bo'lgani kabi bu yerda ham qahramonlari hayotini xronologik tarzda hikoya qilish yo'lidan bormaydi, ikkala alloma hayotidagi jiddiy bir palla — bor-yo'g'i bir oydan ortiq davr hodisalarini qalamga oladi.

Qahramonlar hayotidagi bu palla shunday bir dovonki, bu dovondan ularning butun bosib o'tgan yo'li, qahramonlar hayotidagi bu palla shunday bir dovonki, bu dovondan ularning butun bosib o'tgan yo'li, o'tmish va kelajagi yaqqol ko'rinadi. Voqealar sodir bo'lgan maskan shunday bir bekatki, bu bekatda xilma-xil odamlar to'qnash keladilar, bu yerda umr bo'yi davom etgan ziddiyat, mojarolar muayyan intihosiga yetadi, dillarda armon bo'lib yotgan dard-u hasratlar to'kib solinadi. Sir-u asrorlar oshkor bo'ladi, umrlar sarhisob etiladi, muallif personajlarga qo'shilib, hayot jumboqlari ustida qizg'in bahslar olib boradi.

Romanga asos qilib olingan hodisa — umr bo'yi Sulton Mahmud G'aznaviyni xushlamagan, sulton ta'qibidan olislarda yurgan Ibn Sinoning pirovardida uning huzuriga kelishi, yigirma yil judolikdan so'ng G'aznada Beruniy bilan diydorlashuvi voqeasi hayotda bo'lgan-bo'lmagani ma'lum emas. Biroq yozuvchi fantaziyasining mahsuli bo'lmish bu hodisalar badiiy haqiqatning go'zal namunasi, noyob badiiy modeli darajasiga ko'tarilgan. Qarang, ulug' alloma, bir tomoni zo'rlik, qolaversa, tabiblik burchi taqozosi bilan keksalik chog'ida, xasta holida ne-ne mashaqqatlar bilan kecha-kunduz yo'l yurib, aziz va mag'rur boshini egib ma'naviy raqibi — mustabid hukmdor huzuriga uni davolash uchun keladi. Ammo bu yerda uning nafsoniyati oyoqosti qilinadi. Saroyda allaqachon Ibn Sino niqobi ostida soxta,



firibgar hakim paydo bo'lgan va hiyla-nayranglar orqali hukmdor e'tiborini qozongan. Sulton shu darajaga tushib qolganki, chin Ibn Sino bilan soxta hakimni bir-biridan farqlay olmaydi, firibgarni boshga ko'tarib, chin hakim-u davronni tahqirlab saroydan haydaydi.

"Ko'hna dunyo"dagi bu syujet katta ramziy — umumlashma xususiyatga ega. Haqiqiy iste'dod sohiblari, chin zahmatkash daholar bu yoqda qolib, xor-u zor bo'lib, soxta, firibgar «ijodkor»larning obro'-e'tibor qozonishi hamma davrlarga, ayniqsa, mustabid hukmronlar siyosatiga xos

tarixning ajib bir sirli jumbog'idir. Roman ana shu sirli jumboq ustida iztirob bilan o'ylashga, bahsga undaydi sizni.

Ro'y bergan adolatsizlik ikki buyuk allomada ikki xil taassurot qoldiradi. Charxi kajraftorining xilma-xil o'yinlarini, jabr-u sitamlarini ko'p ko'rgan Ibn Sino bu telba dunyoning mudhish nayranglariga go'yo beparvodek qaraydi. Beruniy esa g'azab, afsus-nadomatlardan o'zini qo'yarga joy topolmaydi. Bu xildagi ziddiyatli holat ham hodisaning dramasini yanada keskinlashtiradi, bahs ruhini kuchaytiradi..⁵.

Romanda solnomachi-hikoyachi retrospeksiya voqealar kundalik xotiralarini hikoya qiluvchi solnomachi – Abu Ubayd al-Juzjoni tomonidan beriladi. “Ko'hna dunyo” romanida rivoya shaklining rang-barang bo'lishida Juzjoni kundaliklari muhim vazifani bajargan. Juzjoni kundalik xotiralar romanda beshta retrospektiv epizod orqali hikoya qilingan. Natijada: 1) rivoyaga to'qima hikoyachining kiritilishi tasvirni yanada ishonchliroq qiladi; 2) hikoya qilinayotgan ma'lumotlar qayerdan olinganligi to'g'risida kitobxon bilan o'rtoqlashish uni voqealarga yanada ishontiradi; 3) muallifning qahramon bilan yaqindan tanishligi kitobxonning muallifga ishonchini oshiradi.

Juzjoni kundaligi haqiqatan ham hayotda bo'lganligiga kitobxonni ishontirish uchun O.Yoqubov epik rivoyaning xuddi shunday usulidan foydalanadi. Juzjoni tilidan berilgan dastlabki retrospektiv epizoddan so'ng muallif bu kundalikning tarixi, bu kundalik bilan qanday tanishganligi ma'lum qilinadi. Kundalik haqidagi ma'lumot alohida, asardagi voqealar tarkibiga kiritilmagan holda, kitobxonga tushuncha sifatida berilgan. Bu kundalik xotiralarining barchasida hikoyachi-personaj Abu Ubayd al-Juzjoni. Retrospektiv rivoyadagi voqealar

⁵ <https://www.facebook.com/bookmark.uz/posts>.



kundalik tarzida bo‘lib, epizodlarda bevosita shayxga, ya’ni Juzjoniyning ustozlari Abu Ali ibn Sinoga aloqador bo‘lgan xotiralar o‘rin olgan. Kundalik tarzidagi rivoyalar asarning turli o‘rinlarida kelgan bo‘lsa-da, biri ikkinchisini mazmunan davom ettiradi.

Ma’lumki, kundalik yozuvchi shaxs o‘z hayotida ko‘rgan-kechirganlarini yozadi, Juzjoniyning xotiralarida ham uning ustozlari Ibn Sino bilan birga o‘tkazgan onlari, birgalikda yozgan asarlari haqida hikoya qilinadi. Kundalikdagi voqealar jarayoni tahlili ushbu xotiralar kundalik muallifidan ko‘ra ko‘proq Ibn Sino hayotini yoritishga qaratilganligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, odatda, xotiralarda yaqin vaqt oralig‘idagi yoki kundagi voqealar kundalik sahifasidan o‘rin oladi. Juzjoniyni kundaliklaridagi voqealar mantiqan birin-ketin hikoya qilingan bo‘lsa-da, unda kundalik voqealarga emas, balki ancha olisroqda bo‘lib o‘tgan voqealar ham tilga olinadi: “Bundan besh-olti oy muqaddam, amir Mas’ud Isfahonni zabt etganda, shayx undan qochib, Hamadonga kelgan edi. Bundan bir oy muqaddam esa shayxning Isfahondagi hovlisiga o‘t tushgani haqidagi ko‘ngilsiz xabar kelgandi. Aytishlaricha, yong‘in chog‘ida shayxning kutubxonasi yonib ketgan”.

Yana bir jihat, odatda, kundalik xotiralarida sodir bo‘lgan voqealar va ularda ishtirok etgan shaxslar haqida gap boradi. Juzjoniyni kundaliklarida esa peyzaj tasvirlari, shayxning ruhiy holati, kechinmalari ham Juzjoniyni tilidan beriladi.

Bu kundaliklarni retrospektiv rivoya sifatida olishimizning sababi shundaki, har qanday o‘tmish haqidagi xotiroalar, kundaliklar retrospektiv sujetning alohida bir turi sanaladi. Garchi Juzjoniyni kundaliklari kitobxon yashagan davrga nisbatan uzoq o‘tmishda sodir bo‘lgan voqealarni bayon qilib, retrospektiv rivoyani hosil qilgan bo‘lsa ham, u asardagi voqealarga nisbatan uzoq o‘tmish bo‘la olmaydi. Kundalikda hikoya qilingan voqealar asardagi boshqa yo‘nalishdagi voqealar bilan parallel ravishda va ketma-ketlikda rivojlanadi.

Juzjoniyni rivoyasida Abu Ali shogirdi bilan Isfahon tomon yo‘l olganligi to‘g‘risida xabar beriladi va rivoya yakunlanadi. Undan keyin voqealar amir Mas’ud haramiga ko‘chadi. Kutilmagan qattiq og‘riqdan “azroil bilan jon talashayotgan” amir Mas’udga uning sipohsolori Ibn Sino haqidagi xabarni keltiradi: “Tobariston darvozasining darvozaboni darvesh kiyimda uch nafar noma’lum kimsalarni tutibdur”.



Bular Ibn Sino, Juzjoniyy va Shokalon bo'lib, Juzjoniyy hikoyasida bular Isfahon tomon yo'l olgan edilar. Keyingi voqeada esa ularni Tobariston darvozasiga yetib kelganliklari haqida xabar berilyapti. Juzjoniyy rivoyalari ham asardagi boshqa voqealar bilan uzviy bog'liklikda, ularga aralashib ketgan. Bu holatda rivoyalarning hammasini retrospektiv sujetga kiritib bo'lmaydi. Chunki kundalikda hikoya qilingan voqealarda asardagi voqealar va o'sha davrga nisbatan o'tmishga qaytish hodisasi yuz bermayapti. Biroq ana shu kundaliklar tarkibida o'tmishga qaytib hikoya qilinuvchi uncha katta bo'lmagan retrospektiv epizodlar ham bor. Bularning barchasi romandan o'rin olgan xarakterlarning u yoki bu qirralarini talqin etish va yoritishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бозоров О. “Узбек адабиетида епистоляр жанр тараккиети”. Макола, Qashqadaryo.187- б.
2. D.Quronov. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent:.-“Akademik nashr”.2013y.
3. Рогинская О. Эпистолярный роман: поэтика жанра и его трансформация 4.врусской литературе: Дисс.на соиск.... канд.наук. – Москва, 2002. – Стр. 65.
- 5.Davronova Sh.”Nazariy poetika”. Ma'ruza matnlari.Buxoro:.-2020y
6. Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari.-T.,O'zbekiston. 2002-yil
- 9.Бахтин. М.М. Литературно-критические статьи.-М.: —Художественная литература, 1986.
10. Потебня А.А. Эстетика и поэтика. – М.: Искусство, 1976. – 614 с. Хализев В.Е. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 1999.
- 11.Султонов И. Адабиёт назарияси.-Т.: —Ўқитувчи, 2002.
- 12.Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати.-Т.: —Шарқ, 1999
- 13.Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш.-Т.: —Халқ мероси нашриёти, 2004.
- 14.Ўзбек адабий танқиди. Антология. – Т.: —Турон-иқбол, 2011.
- 15.Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. -Т. —Академнашр, 2010.

